


## **ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR**

**2018 yil yanvar-sentyabr oylarida**


### ***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar***

Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3661.6 mlrd. so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 151.1 %ni tashkil etdi. Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tahlil qilinganda, joriy davrda o'zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning katta qismi 2262.4 mlrd.so'm yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 61.8 %ini jalb etilgan mablag'lar hisobigadan to'g'ri keldi, 1399.2 mlrd.so'm? yoki jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 38.2 % I korhona va aholining o'z mablag'lari hisobidan o'zlashtirildi.



Asosiy kapitalga investitsiyalarning markazlashganlik darajasidan kelib chiqib tahlil qiladigan bo`lsak, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 1470,1 mlrd. so`m yoki jami o`zlashtirilgan invest-titsiyalarning 40,1 %ini, hamda markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2191,5 mlrd so`m yoki jami o`zlashtirilgan investitsiyalarning 59,9 %i o`zlashtirildi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalarining - 2,7 %ini Respublika byudjeti, Davlat maqsadli jamg`armalari 8.0 %ni, O`zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy investitsiya va kreditlar 15.4 %ni, Tiklanish va taraqqiyot jamg`armasi hisobidan 13.8%ni, Bolalar sportini rivojlantirish jamg`armasi hisobidan 0.2%ni tashkil etdi.




Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 28.1%ini korhona va tashkilotlarning o`z mablag`lari tashkil etadi. Bu korhona va tashkilotlarning asosiy qismi o`z faoliyatlarini kengaytirish hamda texnik va texnologik qayta qurollantirish maqsadidagi investitsiyalarini avvalambor o`z mablag`lari hisobidan amalga oshirishlari bilan bog`liq.


To`g`ridan to`g`ri va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o`zlashtirilayotgan investitsiyalar hajmi tobora ortib bormoqda. Joriy davrda ushbu moliyalashtirish manbai hisobidan investitsiyalar jami markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 10.5 %ini tashkil etdi. Bunda Ustyurt investitsiya bloki hududida uglevodorod konlarida qazib chiqarishni yo`lga qo`yish loyihalarining ulushi kotta.

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining 11,1 %ini tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablaglari tashkil etdi.

Joriy yilda yakka tartibdagagi uy-joy qurilishidagi aholi tomonidan ajratilgan mablag`larning ulushi 10,2 %ni tashkil etdi.




### *Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar*



Tumanlar kesimida Taxiotosh, Taxtakupir, Mo`ynoq, Kegeyli, Xo`jayli tumanlaridagi investitsion faoliik natijasida yuqori o'sish suratlari qayd etildi.

### ***Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi***



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish mon-taj ishlari bo`yicha 1980.8 mlrd. so`m o`zlashtirilgan bo`lsa, mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar 1157.0 mlrd.so`m va boshqa xara-jatlarga 523.8 mlrd. so`m o`zlashtirildi. Qurilish-montaj ishlariga investitsiyalar joriy yil boshidan biroz ko`payish kuzatildi. Bu iqtisodiyotda, ayniqsa asosiy tarmoqlarda, hususan energetika sanoatida yaratilayotgan yangi yirik ishlab chiqarish quvvatlariga investitsiyalar bilan bog`liq.


### ***Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibi***

Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha tarkibida yuqorida ta`kidlab o`tilganidek energetika sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 1098.3 mlrd.so`m yoki jami asosiy kapitalga kirtilgan investitsiyalarning 30.0 %i o`zlashtirilgan. Tog-qon sanoatida 753.8 mlrd.so`m, yoki 20.6%i o`zlashtirilgan. Shundan 99,4%i tabiiy




gaz qazib chiqarish uchun yo`naltirilgan.Turar joy qurilishiga investitsiyalar 599.3 mlrd.so`mni va jami investitsiyalardagi ulushi 16.4%ni tashkil etdi.Ush bu ko`rsatkich aholini namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar qurilishi bo`yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishi hamda aholi tomonidan yakka tartibdagi turar-joylar qurilishi hajmlari bilan bog`liq.

Ishlab chiqarish sanoatiga investitsiyalar hajmi 398.1 mlrd.so`mni va jami investitsiyalardagi ulushi 10.9 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko`p investitsiya o`zlashtirilgan 2 faoliyat turi quyidagilar: boshqa nometall mineral mahsulotlariniishlab chiqarish 42.3 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 1,2%), ip-gazlama mahsulotlari ishlab chiqarishi 85.4 mlrd.so`m (2.3%). , tashish va saqlash фаолият тури буйича 184.1 mlrd.so`m (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 5.0%ni) tashkil etdi.



Joriy davrda 947.2 mlrd so`m yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 25.9%i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan amalga oshirildi.

## ***Hisobot davrda Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar***



### ***Obyektlarni ishga tushirish***


Joriy davrda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning natijasi sifatida ijtimoiy soha obyektlari ishga tushirildi.

Ijtimoiy sohada joriy davrda jami 568.0 ming kv.m, shu jumladan qishloq joylarda 220.1 ming kv.m turar joylar ishga tushirildi. Ulardan namunaviy loyihalar asosida qurilgan turar joylar 68.1 ming kv.m ni tashkil etdi.

Ta`lim soxasida qyrilishi yangi ,216 o`quvshi urniga muljallangan (Nukus shaxrida) maktab ishga tushirildi.Respublikaning boshqa 8 tumanlarida 2166 o`quvshi urniga muljallangan mакtablar, ta`mirlanib topshirildi.

Sog`liqni saqlash soxasida bir smenada 950 qatnovga muljallangan ambulatory-poliklinika muassasalari, shu jumladan qishloq joylarida 575 tasi,yangidan va qayta ta`mirlanib ishga tushirildi.

Kommunal sohada jami 1.5 km uzunlikdagi gaz quvurlari ishga tushirilgan bo`lib, undan 0.8 km uzunlikdagisi qishloq joylarda ishga tushirildi. Suv quvurlari tarmog`i bo`yicha esa 91.2 km ishga tushirilgan bo`lib, undan 55.2 kmi qishloq joylarda ishga tushirildi.



***Qoraqalpog'iston Respublikasi  
statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish  
statistikasi bo'limi***

***Nashr uchun mas'ul: Z.Seytimbetova  
Aloqa telefoni: (861) 222-75-91***